

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-sentyabrda Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi joriy narxlarda 27 324,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning mos davriga nisbatan 4,5 % ga ko'paydi.

2019 yilning yanvar-sentyabr yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 7 138,1 ming. so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 2,3 % ga ko'paygan.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMni shakllantirishda Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 7,6 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish

	Mlrd. so'm		2018 yil yanvar-sentyabr nisbatan, % da
	2018 yil yanvar-sentyabr	2019 yil yanvar-sentyabr	
I. YaHM	22 629,0	27 324,6	104,5
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	22 236,2	26 547,3	104,4
Mahsulotlarga sof soliqlar	392,8	777,3	108,4
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	22 236,2	26 547,3	104,4
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	11 387,0	12 618,1	100,6
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	4 376,2	5 635,2	113,3
sanoat	3 298,6	4 169,8	109,2
qurilish	1 077,6	1 465,4	125,7
Xizmatlar	6 473,0	8 294,0	105,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 432,2	1 712,1	103,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 548,5	1 719,1	104,7
boshqa xizmat tarmoqlari	3 492,3	4 862,8	106,1

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati - 100,6 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 47,5), sanoat – 109,2 %, (15,7 %), qurilish – 125,7 % (5,5 %) va xizmatlar sohasi 105,1 % (31,3 %) ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-sentyabrida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




Iqtisodiy faoliyat turlari

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,2 % ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,8 % ni tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining YaHM tarkibidagi ulushi 3,7 % punktga kamaydi va hisobot yilida 47,5 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining YaHMdagi ulushi 1,6 % punktga ko'paydi va hisobot yilida 21,2 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi esa 31,3 % ni tashkil etib 2018 yilning mos davri (29,2 %) bilan taqqoslanganda 2,1 % punktga ko'paydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-sentyabr



2019 yil yanvar-sentyabr




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 6,4 % ni (2018 yil yanvar-sentyabr – 6,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 6,5 % ni (7,0 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 18,4 % ni (15,8 %) tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)**

2018 yil yanvar-sentyabr



2019 yil yanvar-sentyabr



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Samarqand viloyat statistika boshqarmasi.
Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig'ma axborot-tahliliy ishlar bo'limi
Nashr uchun mas'ul: D.Almatov
(71) 230-85-19